

**BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOY OMILLARNING AHAMIYATI**

**ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА**

**THE IMPORTANCE OF SOCIAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF A CHILD'S  
PERSONALITY**

**Suyunova Matluba Abdusaidovna**

*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim  
metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.*

**Davronova Sevinch Alisherovna**

*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti, Maktabgacha ta'lim  
pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi.*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi va bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar va vositalar haqida fikrlar bayon qilingan.*

**Аннотация :** *В данной статье описывается социальное развитие детей дошкольного возраста и факторы и средства, имеющие значение в этом процессе.*

**Annotation:** *This article describes the social development of preschool children and the factors and tools that are important in this process.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *bola, ijtimoiylashuv, sotsium, oila, ota-ona, shaxs, rivojlanish, faoliyat, jamiyat, konsepsiya, maktabgacha ta'lim.*

**Key words and expressions:** *child, socialization, society, family, parents, person, development, activity, society, conception, preschool education..*

**Ключевые слова и выражения:** *ребенок, социализация, общество, семья, родители, личность, развитие, деятельность, общество, зачатие, дошкольное воспитание.*

Bolaning shaxsiyatining rivojlanishi turli xil faoliyatlarda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishda eng samarali hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy rivojlanishini umumiy tushunchasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiylashuv-bu maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish jarayoni. Ijtimoiylashuv-bu butun hayot davomida davom etadigan doimiy jarayon. Maktabgacha bolalikda bu birinchi navbatda ijtimoiy hayot me'yorlarini o'zlashtirishdir.

Ijtimoiy kompetensiya-hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishida etakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilish va egallash yotadi. Ijtimoiy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xatti-harakatlari tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar va munosabatlarda mustahkamlanadi.

Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari turishi ko'zda tutilgan. Pedagog, ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir butunlikda ijtimoiy muhitni tashkil qiladi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me'yorlar mohiyatini o'zlashtiradi. Jamiyatning a'zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo'lida ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi.

Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Mustaqil taraqqiyot yo'lga chiqqan O'zbekistonda ko'plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda oilaviy psixoterapiya sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan tatqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj tobora sezilmoqda. Zero, bunday xizmatlarga ehtiyoj bir tomondan oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shu maskanda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan e'tiborning samarasini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan boladagi jamiyatda, insoniy munosabatlar tizimida munosib maqomga ega bo'lishni ta'minlaydigan eng dastlabki ijtimoiy tasavvurlar hamda o'zi va

o'zgalari to'g'risidagi tushunchalarning shakllanishiga oiladagi ma'naviy-ruhiy munosabatlarning rolini aniq empirik ma'lumotlar bilan asoslashga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Ko'plab psixologik tadqiqotlarda oila, bola shaxsining shakllanishi va uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanadi. Lekin bolaning o'zi to'g'risidagi barcha tasavvurlari shakllanishida u tarbiyalanayotgan oiladagi munosabatlarning xususiyatlari, oila tiplari va ota-onalik maqomlari ular tomonidan qay darajada anglanishining bevosita roli alohida tadqiqot doirasida O'zbekiston sharoitida o'rganilmagan. Bu masala amaliy ahamiyatga molik bo'lib "...inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 % ini besh yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan".

Demak, shu informatsiyalar orasida bola o'z "Meni"ni to'g'ri shakllantiradigan va shu orqali uni ijtimoiy psixologik munosabatlarga ruhan tayyorlaydigan ma'lumotlarning manbai va ta'sir kuchini o'rganish yosh ota-onalar va oilashunoslar uchun o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda jahon psixologik ilmida ham bola xulq-atvori va ruhiyatining shakllanishida oila va ota-ona muhim rol o'ynaydi degan yondashuv yetakchilik qiladi. Boshqa tomondan, bolaning rivojlanayotgan shaxs sifatidagi faolligi ham oiladagi o'zaro munosabatlar xususiyatini belgilab beradi. Oilada bola shaxsi rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri bu undagi "Men" konsepsiyasining shakllanishi bo'lib, bir qarashda bu sof kognitiv holat bo'lsa-da, uning manbasi va shakllantiruvchi omillar oila muhiti va undagi o'zaro munosabatlarining xarakteriga bevosita bog'liqdir. Bizning vazifamiz - o'zini anglashga qodir, boshqa odamlar bilan, o'zi bilan uyg'un munosabatlarni o'rnatishga qodir bo'lgan faol ijodiy shaxsni tarbiyalash hisoblanadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi psixik taraqqiyot davri bola o'zligini anglash va "Men" konsepsiyasi shakllanishining muhim bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. (B.G.Ananyev, L.S.Vigotskiy, M.I.Lisina, V.S.Muxina, K.Rojers, Z.Freyd, K.Xorni, E.Erekson va boshqalar). Biroq bola "Men" konsepsiyasining mazmun- mohiyati, uning ayrim unsurlari, ularning o'zaro nisbati va antogenizning turli bosqichlarida namoyon bo'lishining mohiyati shuningdek ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi oiladagi munosabatlari ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabatlarga ota va onaning o'zaro munosabatlariga bog'lab o'rganishni hozirgi zamon psixologiyasining muhim va dolzarb, nazariy va amaliy muammosi, deb hisoblaymiz.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U, ayniqsa, bolalik va yoshlik davrlarida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, shaxs tomonidan aynan bolalik davrida asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvda ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin, asosan, oilada rivojlansa, uning keying rivojlanishi turli muhitlar maktabgacha ta'lim muassaslari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya tashkilotlari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi.

Bola o'sib borgan sari, uning ijtimoiy muhiti "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi.

Muhit bolaning ijtimoiylashuv jarayoni va ijtimoiy tajriba to'plashida muhim ahamiyatga ega.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishida yetakchi o'rinni o'z xalqining axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirish va keyinchalik umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni bilishi egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy xatti-harakatlari tajribasi kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi va tengdoshlari bilan turli xil qo'shma tadbirlar va munosabatlarda mustahkamlanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bolada boshqa bir ob'ektiv ehtiyoj - o'ziga xoslikni namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Shaxsning faqat o'ziga tegishli bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy xulq-atvori esa takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. STEAM-ТЕХНОЛОГИЯ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ С Абдумажитова - Innovations in Technology and Science Education, 2023

2. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА STEAM ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА О'QUV ЖАРAYONINI ТАШКИЛ ЕТИШ ЖАРAYONI АS Abduqosimovna - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023

3. ИГРА ДЛЯ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ С ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРОЙ ТЕХНОЛОГИЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ М Жовлиева, СА Абдумажитова - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023

4.PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THEIR AGE IN FORMING THE INTELLECTUAL ABILITY OF THE STUDENTS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AG Majitovna Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 414-418

5.PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS SPECIFIC TO THEIR AGE IN FORMING THE INTELLECTUAL ABILITY OF THE STUDENTS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AG Majitovna Новости образования: исследование в XXI веке 1 (5), 414-418

6.INNOVATION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARBİYALANUVCHILARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ULARNING YOSHIGA XOS BO'LGAN PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI AG Majitovna

7. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАБ ТА'ЛИМИГА TAYYORLASHDA IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH AG Majitovna INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 42-45

8. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI AG Majitovna, EX Xoltorayevna INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 46-52

9. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA TALIM-TARBIYA BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QOLLASH ASOSIDA BOLALARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI AK Hamrayevna INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 62-66

10. МАКТАБГА ТАЙЁРЛОВ ГУРУҲИ БОЛАЛАРИНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ MAZMUNI GU Холбоева - INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023

11. БОЛАЛАРИНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИ GU Холбоева - Новости образования: исследование в XXI веке, 2022

12. Формирование трудового воспитания у детей дошкольного возраста GU Холбоева, РЖ Окбоева - Евразийский научный журнал, 2018

13. SHARQ ALLOMALARINING YUKSAK G'OYALARI BOLA TARBIYASINING ASOSI SIFATIDA.

S Sharapova - INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND ..., 20223.

14. SHAXS SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI. MA Suyunova - Eurasian Journal of Academic Research, 2022 - in-academy.uz

15. Model Developing Communicative Speech Activity at Early Age Sh. Kadirova - Eastern European Scientific Journal, 2019

16. ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕТЕЙ С АФФЕКТИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ ШХ Кадирова - Вопросы педагогики, 2018

17. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING TUTGAN O'RNI SHX Qodirova - Перспективы развития научных исследований в 21 ..., 2016

18. Islomov N., Andullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2013.

19. SHAXS SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI. MA Suyunova - Eurasian Journal of Academic Research, 2022 - in-academy.uz

20. SHARQ ALLOMALARINING YUKSAK G'OYALARI BOLA TARBIYASINING ASOSI SIFATIDA. S Sharapova - INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND ..., 2022

20. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР РИВОЖЛАНИШИДА ЎЙИННИНГ РОЛИ ЮД Курбонова INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 3 (29), 80-84

21. МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА